

View this email in a [web browser](#)



PYC

ENG



Axborot byulletenining so'nggi soniga xush kelibsiz!

Biz besh yillik "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan yigirmanchi va yakuniy axborot byulletenini taqdim etishdan mamnunmiz. [Yevropa Ittifoqi \(YI\)](#) ko'magida hamda [Xalqaro savdo markazi \(XSM\)](#) ijrochi hamkor sifatida ishtirok etgan holda loyiha O'zbekistonni [Jahon savdo tashkilotiga](#) qo'shilish yo'lida qo'llab-quvvatladi. Ushbu jarayonda biz bilan birga bo'lganingiz uchun tashakkur bildiramiz.

Mazkur son 2025 yil sentyabr–dekabr oylarida amalga oshirilgan faoliyatlarni yoritadi. Muhim voqealardan biri 2025 yil 5–6 noyabr kunlari Jenevada bo'lib o'tgan Ishchi guruhning 11-yig'ilishi bo'ldi. Mazkur yig'ilish O'zbekistonni 2026 yilda JSTga qo'shilish sari aniq yo'lga olib chiqdi. Shu davrda O'zbekiston ikki tomonlama muzokaralarning barchasini, bittasidan tashqari, yakunladi - faqat Xitoy Taypeyi bilan muzokaralar qolmoqda.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi tizimini isloh qilish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi, bu esa JSTning Sanitariya va fitosanitariya choralariga oid Bitimi (SPS) talablarini bajarish imkoniyatini sezilarli darajada mustahkamladi. Ishlar quyidagilarni o'z ichiga oldi: yangi ishlab chiqilgan sanitariya qoidalari va normalari (SanQvaN)ni ko'rib chiqishni yakunlash; ularni amaliyotga joriy etishga ko'maklashuvchi uslubiy

hujjatlar paketini ishlab chiqish; davlat organlari hamda xususiy sektor oziq-ovqat operatorlari uchun uchta texnik seminar o'tkazish.

Shuningdek, kelib chiqish qoidalari masalalari bo'yicha mas'ul mansabdor shaxslar uchun Bryussel shahriga tajriba almashish bo'yicha yuqori darajadagi missiya tashkil etildi. Ishtirokchilar Yevropa Komissiyasi, Belgiya bojxona xizmati, Bryussel Savdo-sanoat palatasi hamda Jahon bojxona tashkiloti vakillaridan kelib chiqish sertifikatlarini berishning texnik jihatlarini bo'yicha amaliy bilim oldilar.

Mazkur nashr [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot ingliz, rus va o'zbek tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbiarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyihaning amalga oshirilishi va erishilgan natijalar haqida to'liq va aniq tasavvur hosil qilish maqsadida hisobot davri — o'tgan chorak — yakunlari yuqorida qayd etilgan maqsadlar kesimida ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

O'zbekistonning amaldagi savdoga oid qonunchiligi va siyosati [JST](#)ga a'zo bo'lishi bo'yicha muzokaralar olib borish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Loyiha JSTga a'zo bo'lish hujjatlarini tayyorlash hamda muzokara pozitsiyalarini shakllantirishda ko'mak ko'rsatib, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini qo'llab-quvvatladi.

Ishchi guruhning 11-yig'ilishi 2025 yil 5–6 noyabr kunlari Jeneva shahrida bo'lib o'tdi. Unda Ishchi guruh hisobotining loyihasi ko'rib chiqildi, bu esa O'zbekistonning JSTga qo'shilish shartlarini yakunlashni sezilarli darajada yaqinlashtirdi. Mazkur hisobot muzokaralarning asosiy mazmunini hamda O'zbekistonning dastlabki majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Loyiha muzokaralar jarayonining barcha bosqichlarida hisobotni ilgari surishga ko'maklashdi.

Shuningdek, loyiha butun jarayon davomida O'zbekistonni ikki tomonlama muzokarlarda ham qo'llab-quvvatladi. So'nggi chorak davomida Yevropa Ittifoqi, Kanada, Ekvador, Panama va Rossiya Federatsiyasi bilan tovarlar va xizmatlar bozoriga kirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Natijada yakunlangan muzokaralar soni 33 taga yetdi. Hozirda faqat Xitoy Taypeyi bilan muzokarlarni yakunlash qolmoqda.



2025 yil noyabr oyida Jeneva shahrida bo'lib o'tgan Ishchi guruhning 11-yig'ilishi davomida O'zbekistonning JSTdagi muzokara jamoasi.

Manba: JST Kotibiyati

Xizmatlar savdosi bo'yicha majburiyatlarni amalga oshirish masalalarida texnik maslahat so'rovi olinganidan so'ng, loyiha dekabr oyida texnik missiya tashkil etdi. Missiya doirasida JSTning Xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy kelishuvi (GATS) doirasidagi majburiyatlar bo'yicha, jumladan Qozog'iston tajribasini inobatga olgan holda, ekspert maslahatlari berildi. Ushbu yordam O'zbekistonning xizmatlar bo'yicha yakuniy taklifini mustahkamlashga xizmat qildi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga qo'shilish jarayonida asosiy vazifalardan biri O'zbekistonning milliy qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirishdan iborat edi. Loyiha ushbu jarayonni boshidanoq qo'llab-quvvatlab, savdoga oid qonunchilikni ko'rib chiqdi va zarur o'zgartirishlar bo'yicha tavsiyalar berdi.

2025 yilning so'nggi choragida loyiha O'zbekistonning tovarlarning kelib chiqish qoidalariga (RoO) oid qonunchiligini kompleks tahlil qilishni yakunladi. Tahlilning maqsadi ushbu qonunchilikning JST talablariga muvofiqligini baholash hamda uni tegishli JST bitimlariga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat edi. Mazkur tahlilni o'tkazish bo'yicha so'rov kelib chiqish sertifikatlarini rasmiylashtiruvchi davlat tashkiloti — "O'zbekekspertiza" AJ tomonidan bildirildi. Texnik tahlil sentyabr oyida o'tkazilgan seminar bilan to'ldirildi va u kelib chiqish qoidalarini bo'yicha bilimlar darajasini oshirishga qaratildi. Batafsil ma'lumot 3-Maqсад bo'limida keltirilgan.



*Bojxona talablariga rioya etish bo'yicha ekspert
Marta Ledvos tomonidan Toshkent shahrida XSM
tomonidan tashkil etilgan tovarlarning kelib
chiqish qoidalarini qo'llash masalalariga
bag'ishlangan texnik seminar.*

Manba: XSM

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Loyihaning muhim tarkibiy qismlaridan biri davlat xizmatchilarining JST talablariga oid bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan salohiyatni mustahkamlash hamda texnik yordam ko'rsatishdan iborat bo'ldi. Shu orqali loyiha O'zbekistonning JSTga qo'shilish jarayonining barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shdi.

2025 yilning so'nggi to'rt oyida loyiha asosiy e'tiborni bojxona talablariga rioya etish masalalariga qaratdi. JSTning tovarlarning kelib chiqish qoidalariga oid talablarini bajarish bo'yicha olib borilgan ishlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida (qarang: 2-MAQSAD), loyiha 2025 yil 17-19 sentyabr kunlari Toshkent shahrida kelib chiqish qoidalariga (RoO) bag'ishlangan uch kunlik seminar tashkil etdi. Treningda bojxona qo'mitasi hamda kelib chiqish sertifikatlarini rasmiylashtiruvchi "O'zbekekspertiza" AJ vakillari, jumladan inspektorlar va auditorlarni o'z ichiga olgan holda, jami 97 nafar tegishli davlat organlari vakillari ishtirok etdi.

Trening doirasida kelib chiqish sertifikatlarini rasmiylashtirishning texnik tartib-taomillari ko'rib chiqildi, shuningdek, kelib chiqish qoidalarini huquqiy jihatdan qo'llash bo'yicha ilg'or xalqaro amaliyotlar o'rganildi. Alohida e'tibor O'zbekistonning milliy qonunchiligini ko'rib chiqishga qaratildi hamda ishtirokchilarga turli davlat organlarining roli, shuningdek idoralararo muvofiqlashtirishdagi muammolarni bartaraf etish yo'llari batafsil tushuntirildi. (Mazkur trening haqida batafsil ma'lumot [havola](#) orqali keltirilgan).



Toshkent shahrida tovarlarning kelib chiqish qoidalariga bag'ishlangan uch kunlik trening davomida Bojxona qo'mitasi va "O'zbekekspertiza" AJ vakillari.

Manba: XSM

Shuningdek, loyiha doirasida Uygulashtirilgan tasniflash tizimi (HS) bo'yicha besh kunlik o'quv seminari ham tashkil etildi. HS - Jahon bojxona tashkiloti (JBT) tomonidan ishlab chiqilgan, tovarlarni tasniflash uchun mo'ljallangan xalqaro nomenklatura bo'lib, u 200 dan ortiq mamlakatlarda bojxona tariflarini qo'llash va tashqi savdo statistikasi yuritishda foydalaniladi. Uygulashtirilgan tasniflash tizimni to'g'ri va izchil qo'llash JST doirasidagi majburiyatlarga rioya etish hamda shaffoflik talablarini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois ushbu trening O'zbekistonning JSTga qo'shilish bo'yicha sa'y-harakatlari uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.



2025 yil 17–21 noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Uygulashtirilgan tasniflash tizimi bo'yicha trening davomida Bojxona qo'mitasi vakillari.

Manba: Bojxona qo'mitasi

Mazkur seminar 2025 yil 17–21 noyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Unda Bojxona qo'mitasi, Bojxona instituti va "O'zbekekspertiza" AJ vakillari ishtirok etdi. Trening JSTga qo'shilish va keyingi a'zolik sharoitida Uygulashtirilgan tasniflash tizimini amaliy qo'llash masalalariga qaratildi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining Kombinatsiyalangan nomenklaturasi (CN) bilan tanishtirildi va CN hamda HS

o'rtasidagi asosiy farqlar tushuntirildi. (Qo'shimcha ma'lumot uchun [veb-maqolamizga](#) qarang).

Hisobot davrining muhim voqealaridan yana biri tajriba almashish bo'yicha Bryussel shahriga amalga oshirilgan tanishuv missiyasi bo'ldi. Ushbu missiya "O'zbek ekspertiza" AJ so'rovi asosida O'zbekistonning bojxona va sertifikatlash organlaridan to'qqiz nafar mansabdor shaxs uchun tashkil etildi. Missiyaning maqsadi Yevropa Komissiyasi mutaxassislari tajribasi asosida kelib chiqish sertifikatlarini berishning texnik jihatlarini o'rganishdan iborat edi. Missiya 2025 yil 16–18 dekabr kunlari bo'lib o'tdi.

Missiya doirasida delegatsiya Yevropa Komissiyasining Soliq va bojxona ittifoqi bo'yicha Bosh direksiyasiga (DG TAXUD) tashrif buyurdi. U yerda Yevropa Ittifoqining kelib chiqish qoidalariga oid normativ-huquqiy bazasi, shu jumladan amaldagi tartibga solish mexanizmlari va tegishli siyosiy yo'nalishlar bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etildi. Shuningdek, delegatsiya Belgiya bojxona xizmati, Bryussel Savdo-sanoat palatasi hamda Jahon bojxona tashkiloti (JBT) vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi. (Batafsil — [havola](#) orqali).



Bryusselda Yevropa Komissiyasi bosh qarorgohida DG TAXUD vakillari bilan uchrashuv chog'ida delegatsiya.

Manba: XSM



Bryusselda Jahon bojxona tashkiloti bosh qarorgohida bo'lib o'tgan uchrashuv davomida delegatsiya.

Manba: XSM

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Savdodagi texnik to'siqlar (STT) hamda sanitariya va fitosanitariya choralar (SFS) sohalari JST talablarining eng murakkab va texnik jihatdan murakkab yo'nalishlaridan hisoblanadi. Milliy hamkorlar so'rovi asosida loyiha so'nggi bir yil davomida aynan ushbu yo'nalishlarda O'zbekistonning JSTga qo'shilish bo'yicha texnik tayyorgarligini yakunlashga katta e'tibor qaratdi.

O'tgan yil davomida O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi talablariga muvofiqligini oshirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. 2025 yil yakunida loyiha sanitariya qoidalari va normalari (SanQvaN)ni JSTning SFS bitimi hamda Codex Alimentarius standartlariga muvofiqligini ta'minlash maqsadida ko'rib chiqishni yakunladi. Texnik aniqlik va normativ uyg'unlikni ta'minlash uchun xususiy sektor oziq-

ovqat operatorlari, tegishli vazirliklar hamda boshqa manfaatdor idoralardan batafsil fikr-mulohazalar olindi va inobatga olindi.

Shu bilan birga, loyiha oziq-ovqat gigiyenasi va HACCP (xavflarni tahlil qilish va muhim nazorat nuqtalari) tizimiga oid yangi SanQvaNni ishlab chiqishni yakunladi. Bundan tashqari, asosiy SanQvaNlarga qo'shimcha sifatida bir qator uslubiy hujjatlar tayyorlandi. Ushbu hujjatlar davlat xizmatchilarga normalarni amalda qo'llash va yangi qoidalarni bir xil talqin qilishni ta'minlashda yordam beradi. Mazkur uslubiy hujjatlar loyiha ko'magida ishlab chiqilgan, ko'rib chiqilayotgan Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risidagi qonunni to'ldiruvchi ikkilamchi normativ hujjatlar sifatida ham xizmat qiladi.



Oziq-ovqat xavfsizligi talablaridagi kutilayotgan o'zgarishlar bilan tanishish maqsadida tashkil etilgan ikkinchi seminarlar turkumida ishtirok etgan xususiy sektor oziq-ovqat sanoati vakillari.

Manba: XSM

Loyiha ushbu texnik ishlarni salohiyatni mustahkamlash bo'yicha tadbirlar bilan uyg'unlashtirdi. Bu tadbirlar davlat siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etuvchi xodimlar hamda xususiy sektor oziq-ovqat biznesi vakillarining SanQvaNlar bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishga qaratildi. 2025 yil 3–7 noyabr kunlari uchta seminar tashkil etildi:

- 3–4 noyabr kunlari Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi mutaxassislari uchun;
- 5–6 noyabr kunlari oziq-ovqat ishlab chiqarish va muomalasi bilan shug'ullanuvchi biznes subyektlari uchun;
- 7 noyabr kuni tegishli davlat organlari uchun SanQvaNlarni joriy etish va ularning ijrosini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan bir kunlik seminar.

Mazmunan chuqur va batafsil o'tkazilgan treninglar ishtirokchilarning xalqaro talablar hamda xavfga asoslangan oziq-ovqat nazorati tizimlari bo'yicha ilg'or amaliyotlar

haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada kengaytirdi. Xususiyl sektor vakillari oziq-ovqat qiymat zanjirining barcha bosqichlarida qo'llaniladigan yangi tartibga solish choralariga oid amaliy bilimlarga ega bo'ldilar.

Ushbu kompleks qo'llab-quvvatlash paketi O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatning JSTning SFS bitimi bilan bog'liq qo'shilish talablari bajarilishiga sezilarli hissa qo'shdi. (Batafsil — [havola](#) orqali).

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning vazifalaridan biri O'zbekistonning JSTga qo'shilish jarayonining oqibatlari va imkoniyatlari haqida xususiyl sektor xabardorligini oshirishdan iborat edi. So'nggi ikki yil davomida mamlakatning turli tarmoqlarini qamrab olgan maxsus axborot-tushuntirish seminarlar turkumi o'tkazildi. Shuningdek, loyiha xususiyl sektor vakillarini ular uchun bevosita ahamiyatli bo'lgan treninglarga jalb etishni ham maqsad qildi. Jumladan, 4-MAQSAD doirasida o'tkazilgan oziq-ovqat xavfsizligi tizimiga oid seminarlar xususiyl sektor ishtirokini keng ta'minladi.